

**Davlat xizmatlarini ko'rsatishda talab etiladigan ishonchnomalarni
rasmiylashtirish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish
chora-tadbirlari to'g'risida**

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 25.12.2025-yildagi
825-son**

Nizomga ko'ra, ishonchnoma jismoniy va yuridik shaxslarning xohishiga ko'ra so'rovnomada ko'rsatilgan, biroq 3 yildan oshmagan muddatga beriladi.

Ishonch bildiruvchi ishonchnomani rasmiylashtirish uchun OneID orqali Vakolat.uz platformasida ro'yxatdan o'tadi va tegishli so'rovnomani to'ldiradi.

Quyidagi hollarda ishonchnoma ishonch bildiruvchi tomonidan o'zgartirilishi mumkin:

- jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi o'zgarganda;
- yuridik shaxsning nomi va tashkiliy-huquqiy shakli o'zgarganda;
- jismoniy shaxsning biometrik pasporti (ID-karta) ma'lumotlari o'zgarganda;
- ishonchnomaning amal qilish muddati uzaytirilganda.

Quyidagi hollarda ishonchnoma Platforma tomonidan avtomatik ravishda bekor qilinadi:

- ishonchnomaning muddati tugaganda;
- jismoniy shaxs vafot etganda;
- yuridik shaxs tugatilganda.

Reyestr ishonchnomalarni unikal raqam orqali qidirish uchun barchaga ochiq hisoblanadi.

“Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida rasmiylashtirilgan ishonchnomalar Reyestrga avtomatik ravishda kiritiladi.